NUTQ ODOBI VA MADANIYATI: UNI YUKSALTIRISH - TARBIYA VOSITASI

Musurmonkulov Oybek Urolovich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Ilmiy kotibi, p.f.b.f.d.(PhD), k.i.x.

Annotatsiya. Maqolada odob-axloq, shirinso‘zlik va notiqlik madaniyatining inson ma’naviy kamoloti hamda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, nutq madaniyati, so‘zlashish odobi, milliy qadriyatlar va ona tiliga hurmat masalalari tahlil qilingan. Yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda to‘g‘ri, mazmunli va odobli nutqning o‘rni asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: odob-axloq, notiqlik, nutq madaniyati, shirinso‘zlik, ma’naviy tarbiya, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, ona tili.

Аннотация. В статье освещается значение нравственности, культуры речи, красноречия и доброжелательного общения в духовном развитии человека и воспитании молодежи. Анализируются культура речи, нормы общения, национальные ценности и уважение к родному языку. Обосновывается важная роль правильной, содержательной и вежливой речи в духовно-нравственном воспитании молодого поколения.

Ключевые слова: нравственность, красноречие, культура речи, доброжелательная речь, духовное воспитание, воспитание молодежи, национальные ценности, родной язык.

Abstract. The article highlights the importance of morality, speech culture, eloquence, and polite communication in the spiritual development of an individual and youth education. It analyzes speech culture, communication ethics, national values, and respect for the native language. The study emphasizes the role of correct, meaningful, and polite speech in the spiritual and moral education of the younger generation.

Keywords: morality, eloquence, speech culture, polite speech, spiritual education, youth education, national values, native language.

Odob-axloq insonga ziynat bag‘ishlaydi. Axloq ilmi yaxshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi murakkab muammolar haqida bahs yuritadi. Har bir odamning o‘zi bir olam bo‘lgani kabi, uning odob-axloqi esa ik-

kinchi olami, desak adashmaymiz. Shu bois jamiyatdagi har bir shaxsning xulq-odobiga, notiqlik madaniyatiga alohida e'tibor beriladi va bu muammolar bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Yaxshining yomon bo'lishi oson, lekin yomonning yaxshi bo'lishi qiyin. To'g'ri yo'ldan borgan odam, albatta, orzu-niyatiga yetadi.

Insonga tuhfa etilgan "aql" ne'mati shunday qudratli kuchki, u bilan odam o'zini istagan holatda tarbiya eta oladi, har qanday azob-uma-shaqqat, yomonlikni, eng murakkab muammolarni ham "aql" ne'mati bilan yengadi. Aql-zakovat kamoli o'qish, o'rganish, tahlil qila bilish, idrok eta olish, e'tiqod hamda hayot tajribasini egallash bilan belgilanadi.

Yosh niholning barvasta daraxtga aylanishi parvarishiga bog'liq bo'lganidek, odam bolasining ham komil inson bo'lib yetishishi uchun uni murg'akligidan tarbiyalab borish lozimligini unutmasligimiz lozim. Inson yashar ekan, faqat yeb-ichish, yaxshi kiyinish, farovon turmush kechirish bilangina hayot kechirolmaydi, unga ma'naviy-madaniy oziq ham kerak. Bu ilm-fan, aql-zakovat, san'at-adabiyot, kasb-hunar, himmat-ibratdan iborat bo'lishi kerak. Inson - aqlli xilqat, shuning uchun u ko'p xislat va fazilatlar sohibidir. Uning eng go'zal xususiyatlaridan biri odamlar bilan chiroyli muomala va munosabatda bo'lish, notiqlik san'atini qay darajada egallashiga ham bog'liq. Shirinso'zlik va notiqlik - inson qalbining duru gavhari.

"Yuziga boqma, so'ziga boq", degan xalq hikmati bor. Agar inson pokiza, hasaddan yiroq, mehr-shafqatli bo'lsa, uning tashqi jihati ham go'zal va yoqimtoy bo'lib ko'rinadi. Bordi-yu, tashqi tuzilishi xushbichim, qiyofasi ko'rkam, husnu jamolda yagona bo'lsa-yu, lekin tabiatan zahar-zaqqum, qo'pol-so'z, dilozor, xudbin, o'ziga bino qo'ygan, takabbur bo'lsa, unday odam el ko'ziga xunuk, yoqimsiz bo'lib ko'rinishi tabiiy.

Husayn Voiz Koshifiy aytadi: "Go'zal fe'l-atvorning nishonasi o'n ikki narsadir: birinchi nishonasi - yaxshilik; ikkinchi - insofli bo'lish; uchinchisi - boshqa odamdan ayb qidirmaslik; to'rtinchisi - biror odam nojo'ya harakat qilsa, uni yaxshi yo'lga solish; beshinchisi - bir odam o'z aybiga iqror bo'lib, uzr aytsa, uzrini qabul qilish; oltinchisi - boshqalar uchun mashaqqatni o'z ustiga olish; yettinchisi - faqat o'z manfaatini ko'zlamaslik; sakkizinchisi - ochiq yuzli, shirin so'zli bo'lish; to'qqizinchisi - muhtojlarning hojatini chiqarish; o'ninchisi - muloyim va ta-voze'li bo'lishdir".

Odatda, odobli va madaniyatli kishilar boshqalarga nisbatan e'tiborli va sezgir bo'ladi. Xalqimizda "Suxandonlik salomdan, ish intizomdan boshlanadi", degan hikmatli ibora bor. Darhaqiqat, salom bilan



boshlangan suhbat yomon niyatni qaytarib, yopiq eshiklarni ochar va nifoqni yo‘qotar ekan. Ochiq yuzli, xushxulq, xushmuomala odam andisha va farosat egasi bo‘ladi. Shunday go‘zal sifatlarga ega bo‘lgan odam bilan hamsuhbat bo‘lish - yomon xulqli, qo‘rs bir olim bilan hamsuhbat bo‘lishdan ko‘ra yaxshiroqdir.

Donishmand ota-bobolarimiz qadimiy urf-odatlarimizga amal qilib, farzand tarbiyasida ularning xulq-atvorlari, gap-so‘zlari, kishilar oldida o‘zlarini qanday tutishi, fikrlash tarzi, qo‘rslik qilish, kishilar suhbatiga aralashish, gap so‘ramaganda ham mahmadonalik qilib, o‘zlarini aqlli ko‘rsatmoqchi bo‘lish kabi nojo‘ya ishlarga zinhor-bazinhor yo‘l qo‘ymaganlar. Ayni shu narsalarga farzand tarbiyasining eng muhim jihati deb qaraganlar.

Ochig‘ini aytganda, aksar yoshlarimizning muomalasi, madaniyati va ma’naviyati ko‘ngildagidek emas. Chunki ayni shu xonadonlarda Sharq tarbiyasi, sharqona udumlar deyarli unutilgan yoki unga eskilik sarqiti, deb qaraladi. Inson ko‘rki, qadr-qimmati uning odamiyligi, shirinsuxanligi, notiqligi, mehribonchiligi, boshqalarga hurmat va ehtirom ko‘rsata olish kabi fazilatlari bilan o‘lchanadi.

Xalqimizda “Bug‘doy noning bo‘lmasa ham, bug‘doy so‘zing bo‘lsin”, degan gap bor. Ha, darhaqiqat, agar insonning tili shirin bo‘lsa, uni katta-yu kichik hurmat qiladi, gapiga quloq soladi. Shirin tillik insonni baxtu saodatga eltadi, kishining qalbiga, dilu joniga ma’naviy ozuqa beradi. Shuning uchun shirinsuxanlikka yoshlikdanoq o‘rganish kerak.

Shirin so‘z ham, yomon so‘z ham bir og‘izdan chiqadi. Og‘izni shirin so‘zga moyil qilish lozim. So‘z - qudratli kuch. Undan o‘rinli foydalanish ezgulik sari, noo‘rin foydalanish esa yomonlik sari olib boradi. Kichik bir oilaning tinch bo‘lishi ham, butun yer kurrasining tinchligi ham so‘zning qudratiga bog‘liq. Kishilar noahil bo‘lsalar, uydan ham, yurtdan ham baraka ko‘tariladi. Urush-janjal kelib chiqadi.

Bir donishmanddan shogirdlari:

- Nima qilsak, tinch va rohatda umr kechiramiz? - deb so‘rashadi.

Donishmand:

- Hech qayerda hech kimga birorta so‘z so‘zlamang, sukut eting, - deb javob beradi.

Shogirdlari:

- Axir, doim sukut etib yuraveramizmi, bu mumkinmi? Boshqacha yo‘l ko‘rsating, - deyishadi.

Donishmand ularga shunday maslahat beradi:

Sukut eta olmasangiz, so‘zlang, lekin qisqa va ma’noli so‘zlang, og‘zingizdan sira ham nojo‘ya so‘z chiqmasin. Yomon so‘z tinglovchi



ko‘nglini xira qiladi, bundan saqlaning.

Bayt:

Yaxshi so‘zdan ko‘rsang mehru vafo,

Nomunosib so‘zlasang, yetkay jafo.

So‘z orqali inson tafakkuri, fikri anglashiladi, so‘zlash madaniyati orqali odobi, naslu nasabi, ota-onasi va ustozlari bergan ta’lim-tarbiyasi namoyon bo‘ladi. Inson yashashi uchun suv bilan havo qanday zarur bo‘lsa, uning ma’naviy kamol topishida shirinsuxanlik, notiqlik ham shunchalik ahamiyatlidir. Shirinsuxanlik, notiqlik - inson qalbining duru gavhari. Hazrati Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Abduqodir Bedil ana shunday xislatlari bilan xalqlar o‘rtasidagi nizolarni bartaraf etib, ularni yakdil qilganliklariga tarix guvoh. Shuning uchun ham insonlar yoshlikdan shirinso‘zlikka, kam gapirib, ko‘p o‘ylashga o‘rganishlari, bir og‘iz so‘zning ulkan, qudrati buyuk ekanligini tushunishlari lozim. Qadimdan ma’lumki, bir og‘iz shirin so‘z bilan murodga yetganlar, achchiq so‘z bilan boshi ketganlar bor. Dono ota-bobolarimiz shirinso‘zlik, o‘rinli so‘zlovchilar haqida shunday deganlar: “O‘z vaqtida so‘zlab, fursatni g‘animat bilgan, o‘rinsiz so‘zdan saqlanib, salomat yurgan kishiga Tangri rahmu shafqat qiladi”. Shirinsuxanlik, notiqlik, yaxshi so‘z inson his-tuyg‘ulariga mayinlik, qalbiga orom bag‘ishlaydi, obro‘-e’tibor, baxt-saodat, huzur-halovat ato etadi. Shuning uchun ham don-

ishmandlar: “Shirin so‘z - jon ozig‘i”, deyishgan. Notiqlik san’atiga ega kishi aytar so‘zini o‘zgalar dili, qalbiga ozor bermaydigan qilib, odob bilan ifoda etadi. Ayni vaqtda u o‘z odobini, tarbiyasini va xulqini namoyon etadi.

Til - inson tafakkurining mahsuli. U inson madaniyati, fikriy go‘zalligini, yaxshi, ibratli, havas qilsa arziydigan fazilatlarini yuzaga chiqaruvchi vositadir. Ha, so‘zda ham so‘z bor, albatta. So‘zlar borki, kishida qanot paydo qilib, ko‘klarga ko‘taradi. So‘z borki, uni qora yer qilib, o‘z qa’riga tortadi.

So‘z kishi ruhiyatiga turlicha ta’sir etadi. Inson har doim navqiron, bardam bo‘lishi uchun boshqa odamlarni ranjitmasligi, dilini vayron qilmasligi hamda o‘zi ham xush-tabiat bo‘lishi lozim. Inson ikki narsa tufayli qarilik nimaligini bilmaydi. Ularning biri xushxulq, ikkinchisi ezgu so‘zdir. Yer yuzida insondan qoladigan meros - yaxshi so‘zdir. Uning o‘zi olamdan o‘tib ketadi, shirin so‘zi esa mangu qoladi. Gapni yetti o‘lchab, bir aytish kerak. Mulohaza bilan kamgaplik ham bir fazilatdir. Gapirganda ham odob saqlab, suhbat mazmuni va suhbatdoshlar tabiatiga qarab, ma’ni-mantiqli, foydali so‘zlarni topib, dona-dona gapirish esa el orasida kishining obro‘sini oshiradi, azizu mo‘tabar qiladi. Ulug‘ turkman shoiri Maxtumquli:

“Oz ye, oz uxlagin, yana oz so‘zla, Ko‘p so‘z oxir el ichida xor aylar”, - deb yozganida ana shularni nazarda tutgan.

Nutq madaniyatining yoshlar tarbiyasida o‘rni juda katta. Yaxshi so‘zlash ham buyuk san’atdir. Har narsaning chegarasi bo‘lgani kabi, kishi faoliyatining barcha qirrasi, jumladan, notiqlik san’atining ham odob va tarbiya doirasi bor. Yaxshi, shirin, odobli so‘zlashish uchun quyidagilarga e’tibor berish kerak:

1. So‘zning mantiqi, go‘zalligi va boyligi insonning jamiyatda o‘z o‘rnini topishida, kishilar hurmatini qozonishida muhim ahamiyat kasb etadi. Sermazmun, muloyim kishilar gapi miriqib tinglanadi, hatto uni qo‘msashadi ham.

2. Shirinsuxanlik, go‘zal notiqlik san’atiga ega bo‘lish ham baxtdir - nutqi shirin kishilarning do‘sti, yoru birodari ko‘p bo‘ladi. Shirin va oqil so‘z - umr ozig‘i va do‘stlikning mustahkam kalitidir.

3. Shirinso‘zlik - notiqlik kishi umrini uzaytiradi.

4. So‘zlashish me’yorini ham bilish kerak. Ko‘p gapirish odobdan emas. Sukut saqlash yaxshi odob, so‘zni qisqa, aniq ifodalash - katta san’atdir. So‘z - gavhardir. Gavhar esa oz narsadir.

Husayn Voiz Koshifiy aytadi: “Go‘zal xulq-atvorga ega bo‘lgan va suhbat odoblariga rioya qilgan odam hammaning muhabbatini o‘ziga jalb

etadi, qayerga borsa, izzat va hurmatda bo‘ladi”.

Til - qudratli narsa, nutq esa uning asosini tashkil etadi. Bu bilan alloma nutqimizni qashshoqlikka olib kelgan sabablarini ochib berishga intiladi. Bu gaplar ancha oldin aytilgan bo‘lsa-da, lekin hali-hanuz o‘z qadrini yo‘qotmagan. Darhaqiqat, hozirgi kunda nutq madaniyatining pasayishi, ayniqsa, yoshlar orasida keng ko‘zga tashlanadi. Televizor yoki radio orqali chet el so‘zlarining kirib kelishi oqibatida ba’zan ularning qaysi tilda so‘zlashayotganini ham tushunib bo‘lmaydi. Chunki ular nutqida bemalol ingliz, rus, o‘zbek tilining qorishmasini ko‘rish mumkin, shu bilan birga, nutqimizning salbiy tomonga o‘zgarishi bizning asrlar davomida yashab kelayotgan o‘zbek tilimizning tanazzulga yuz tutishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Til - millat ko‘zgusi. Tilni asrab-avaylash har bir kishining insoniylik burchidir. Shukrlar bo‘lsinki, respublikamizda o‘z ona tilimiz - o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Bu o‘zligimizni tanishga olib keldi, kelgusida o‘zbek tilining yanada taraqqiy etishiga yo‘l ochmoqda. Har bir inson o‘z tilini mukammal o‘rganishi, bilishi lozim, chunki tilga e’tibor - elga e’tibor. Bugun o‘zbek tili jahon va BMT miqyosida o‘z mavqeyini yuksaltirmoqda. Lekin nutqning o‘zgarishi tilimizning o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Nutq qanchalik rivojlansa, til shunchalik go‘zallashadi. Afsuski, hozirgi davrda ayrim yoshlarning tilga bo‘lgan e’tiborsizligi ularning nutqining pasayishiga olib kelyapti. Inkor etib bo‘lmaydi, axborot texnologiyalarining rivojlanishi, radio va telekommunikatsiya sohasida ham ma’lum yutuqlar qo‘lga kiritmoqda va ularning xalq orasidagi ahamiyati katta. Lekin radio va televizorda chiqadigan ayrim suxandonlar, boshlovchilar bilim darajasi yetarli bo‘lmaganidan, tili va nutqiga befarq bo‘lganidan, o‘zlarining noo‘rin so‘zlari, qiliqlari orqali millionlab odamlarga ta’sir o‘tkazmoqda.

Donolar aytibdurlar: “Ey, farzand... So‘z to‘rt xil bo‘ladi: birinchisi, bilishga va aytishga hojati yo‘q so‘zlar; ikkinchisi - bilishga va aytishga zarur bo‘lgan so‘zlar; uchinchisi - bilishga zaruri yo‘q, ammo aytsa bo‘ladigan so‘zlar; to‘rtinchisi - bilsa bo‘ladigan, ammo aytishga hojati yo‘q so‘zlar”.

Ammo aytiladigan so‘z shunday bo‘ladiki, dunyoning yaxshiligi shu so‘zga bog‘liq. Bunday so‘zni aytuvchiga ham, eshituvchiga ham ko‘p manfaati bor. Bilish mumkin-u, gapirish mumkin bo‘lmagan so‘zlar shunday bo‘ladiki, bir do‘st kishining aybi senga ma’lum bo‘ladi. Aql tomondan o‘ylagan vaqtda uni aytish behayolikdir.

“Ey, farzand, hamma vaqt to‘g‘ri so‘z gapir. Shoshilishdan qochgin. Har bir so‘zga quloq sol, tezlik qilma. O‘ylamasdan so‘zlama, har bir so‘zni o‘ylab gapir, to aytgan so‘zingdan pushaymon bo‘lmagay-

san. Sovuq so‘z so‘zlama. Sovuq so‘z bir urug‘, undan dushmanlik hosil bo‘ladi”, - degan edi Kaykovus.

Davlatimiz o‘z oldiga malakali mutaxassislarni yetishtirishni maqsad qilib qo‘ygan ekan, biz, eng avvalo, ularning tiliga, notiqlik san’atiga e’tiborni kuchaytirish lozim. Har bir inson o‘z nutqiga e’tibor qaratishi kerak. O‘z nutqimizni yaxshi so‘zlar bilan boyitmog‘imiz zarur.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, har bir so‘z, har bir iborani kishi qalbiga singdiradigan tarzda yetkaza bilish ham san’atdir. Bu xususiyat - oliyjanob maqsad yo‘lida - kelajak avlodni umuminsoniy ruhda tarbiyalashga katta yordam beradi. Notiqlik madaniyati har bir mutaxassisning el orasidagi obro‘si, tarbiyasi va salohiyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kaykovus. Qobusnoma. — Toshkent: O‘qituvchi.
2. Koshifiy H.V. Futuvvatnomayi Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati. — Toshkent: O‘zbekiston.
3. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
4. Navoiy A. Hayrat ul-abror. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
5. Jomiy A. Bahoriston. — Toshkent: O‘qituvchi.
6. Maxtumquli. Saylanma. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.